

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abduvaliyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

ILMIY AXBOROT**M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiysi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.I.Temirova

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakanaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari 186

H.Arabboev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

ZAVQIY SHE'RIYATIDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANILISHI**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНТРОПОНИМОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАВКИ****THE USE OF ANTHROPOONYMS IN ZAVKI'S WORK****¹Umaraliyeva Jannatxon Ubaydullo qizi**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti, magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ubaydullo Solikh o'g'li Zavqiy asarlarida antroponimlarning qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Antroponimik birliklar: ismlar, laqablar, taxalluslar kesimida tasniflanib, shoirning nominator sifatidagi mahorati ochib beriladi. Ismlar leksik-semantik jihatdan guruhlarga ajratilib, ma'nno qirralari izohlanadi. Ayrim nomlarning etimologik tahlil etilishi o'zbek tili onomastikasining Zavqiy ijodida qanday aks etganini ifodalashga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование антропонимов в творчестве Убайдулла Салих углы Завки. Классифицируются антропонимические единицы: имена, прозвища, прозвища и раскрывается мастерство поэта-номинатора. Имена разделены на лексико-семантические группы и объяснено их значение. Этимологический анализ некоторых названий позволяет выразить, как ономастика узбекского языка отражена в произведениях Завки.

Abstract

This article analyzes the use of anthroponyms in Ubaydulla Solikh oglu Zavqi's works. The anthroponymic units: names, nicknames, nicknames are classified and the poet's skill as a nominator is revealed. Names are divided into lexical-semantic groups and their meaning is explained. The etymological analysis of some names serves to express how the onomastics of the Uzbek language is reflected in Zavki's work.

Kalit so'zlar: antroponim, ism, laqab, taxallus, antroponimik aniqlagich, antroponimik nominatsiya, apellyativ, sema.

Ключевые слова: антропоним, имя, прозвище, псевдоним, антропонимический идентификатор, антропонимическое обозначение, наименование, сема.

Key words: anthroponym, name, nickname, pseudonym, anthroponymic identifier, anthroponymic designation, appellative, sema.

KIRISH

Tilning boyishi va saqlab qolinishida mumtoz matnlarning lingvistik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, onomastika tildagi katta qatlamni tashkil etadi. Kamayib borayotgan onomastik birliklar – antroponimlarni mumtoz matnlar orqali o'rganish va tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Antroponimik birliklar XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Ubaydullo Solikh o'g'li Zavqiy ijodida alohida o'rinn egallaydi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, antroponim – (yunoncha anthropos – одам; onyma – nom). Kishining atoqli oti, ismidir. [1,16]. Ism – bu kishilarga berilgan atoqli otdir. Atoqli otga lug'aviy asos bo'lgan turdosh ot esa apellyativ deb yuritiladi. Ma'lum bo'lishicha, "Ismlar nazmiy asarlarda nasrdagilarga nisbatan keng vazifani – uslubiy konnotativ ma'noni ifodalab keladi. Ular, jumladan, antroponimlarning boshqa kategoriyalardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi: shaxsning asosiy nomi hisoblanadi; paydo bo'lishiga ko'ra qadimiy; qo'llanish doirasi keng va faol; antroponimlarning boshqa kategoriyalarini vujudga kelishida asos bo'ladi; matnda o'ziga xos vazifani va ma'noni bajaradi" [2,4]. Zavqiy o'z she'rlarida ismlardan o'z badiiy maqsadini ifodalash hamda hajv qilish maqsadida foydalangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Onomastikaning antroponimika sohasiga antroponimik birlik sifatida ismlardan tashqari laqab, taxallus va boshqalar ham kiradi. Zavqiy she'rlarida 160 dan ortiq antroponimlardan foydalangan bo'lib, ularni quyidagicha taqsimlash

mumkin:



Zavqiy lirikasida qo'llangan antroponimlar, asosan, ismlar leksik-semantik tahlil etilganda quyidagicha ko'rinish kasb etdi:

1) shoir bilan bir davrda yashagan ijodkor do'stlarining nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Muqimiyy*, *Nusrat*, *Furqat*, *Muhiy*, *Nisbatiy*, *G'oziy*, *Shavqiy*. Zavqiy mazkur shoirlar bilan xatlar yozishgan, adabiy uchrashuvlar qilgan.

*Umid ayla Muqimiyy ko'yida ko'p nola qildurdi,
Topib Nusrat o'zini tig'i Furqat birla tildurdi,
O'shal Muhiy qushiga Nisbatiy Zavqiyni ildurdi,
Nihon dardingni ko'z qon yosh to'kib olamg'a bildurdi,
Giriftor o'immasun G'oziy kabi g'ammoz yo'ldosha.* [4,68].

2) shoir bilan zamondosh va tanish bo'lgan turli soha vakillarining nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Sa'dullajon*, *Azimxon*, *Akramjon*, *Mirzo Umar*, *Ergash*, *Ahmadjon*, *Abdurahmonboy*, *Muhiddin*, *Muhammad Shokir* va boshqalar.

Yuqorida nomi keltirilgan aniq tarixiy shaxslar Zavqiyning bevosita tanishlari bo'lib, shoir ular bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Zavqiy bilan 18 yil birga kosiblik qilgan Yo'Idoshxon Abdurazzoqovning aytishicha, (ushbu xotiralar uning o'g'li Solijon aka Yo'Idoshev tomonidan 1970-yilda yozib olingan) [3,257] Ubaydulloh Zavqiy hajga qilgan safarlari vaqtida madrasa mudarrisi mulla Ahmadxon domla singari do'stlariga doimo xat yozib turgan. Do'sti Ahmadjonning qaysi madrasaga mudarris bo'lganligini Zavqiy o'z ta'rixida yozib qoldirgan:

*Abdurahmonboy yasab bir qasrkim jannatfizo,
Yormazor ichra qilib bir madrasa oliy bino.
Boyg'a doim dastgiru homiy, imdad etguchi,
Boniy, ba'zan domla Ahmadjon mudarrisdur yano.* [4,154].

"Havji ahli rasta" da "sil aft, oriqqina" deya ta'riflangan Muhiddinning ig'vosi shoir o'limiga olib kelgan. "Tazkirayi Qayyumiyy"da yozilishicha, Zavqiyning shahar kishilari tomonidan bosmachilarni yarashtirish uchun vakil bo'lganligini Muhiddin Maxdum zolim Ergashga odam yuborib ig'vo etadi. Bundan g'azablangan Ergash dastlab Zavqiyini aldab, so'ngra qattiq azoblaydi. Ikki oydan keyin Zavqiy vafot topadi.[5,491]. Shoir 1917-yil noyabr oyining oxirida 18 yo'llik hajviy she'r yozib, Ergash va uning atrofidagi qora kuchlarning iflos basharasini ochib tashlashga uringan edi. [6,79]. Zavqiy moddati ta'rixida mulla Ergashning Turkiston muxtoriyatida miri asas – harbiy ishlar noziri etib saylanishi haqida yozib qoldirgan.

*Mulla Ergash degan pervoy ras,
Bo'ldi "muxtoriyat"da miri asas.*

*...Dedi hotifi xayoli Zavqiyg'a,
Sanai ta'rxi: "Bu o'g'ri emas". [9,175].*

- 3) shoir bilan zamondosh bo'limgan mumtoz ijodkorlar, buyuk tarixiy shaxslarning nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Jomiy, Bedil, Navoyi, Fuzuliy, Husayn Boyqaro, Amiri, Ne'matulloh Vali, Aflatun, Chingiz va boshqalar.*
- 4) payg'ambarlarning nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Xizr, Yusuf, Ya'qub, Sulaymon, Ayyub, No'h, Ilyos, Mustafo, Hut, Iso.*
- 5) diniy, tasavvaufga aloqador shaxslarning nomlarini bildiruvchi antroponimlar: *Munkar, Nakir, Robia, Rabboniy, Naqshbandiy, Umar.*
- 6) mumtoz an'anaviy obrazlar nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Majnun, Laylo, Farhod, Qorun*
- 7) afsonaviy, folklori qahramonlarini ifodalovchi antroponimlar: *Mahdiy, Kamak, Dog'ulivash, Bodraftor, Mirpo'stin, Xotam* va boshqalar.
- 8) davlat boshqaruvchilarining nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Iskandar, Doro, Sulton Murodbek, Nasriddin, O'rmonbek, Xudoyorxon, Fag'fur, Jamshid, No'shiravon.*
- 9) diniy va dunyoviy lavozim egalarining nomlarini bildiruvchi antroponimlar: *Kaufman, Ottobachi, Azimhoja, Bog'dor eshon, Kamenskiy, hokim Medinskiy.*
- 10) shoir she'rlarida keltirilgan zamondosh insonlarning nomlarini anglatuvchi antroponimlar: *Mirzo Ziyoxon, Karimjon, Eshonbek, Chamachbiy, Gulandom, Kamol, Abdur rashid, Xoja Ilg'orboshi, Mirzo Qalandar, Jarir, Umarjon, Muhiddin, Mo'min, Usmoncha, Yo'dosh, Zokirjon, Nusrat, Abduqodir, Mirzo Hamdam, Hakimjon, Hojijahon, Rahimjon, Nazirbek, Ohundjon* va boshqalar.

Ismlar ma'lum antroponimik aniqlagichlarni qabul qiladi. Ushbu vositalar ismga ma'no ottenkalarini qo'shish va biologik jins tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi. Quyida Zavqiy ijodida faol qo'llangan ayrim antroponimik aniqlagichli ismlarni keltiramiz:

-boy – ism tarkibida bolaga to'qlik, farovonlik tilash, ehtirom ma'nolarida keladi. Ba'zan erkalash ma'nosida ham qo'llaniladi: *Bekturboy, Ashurboy, Mirhamzaboy;*

*Ko'p boylnari sindurding, sudxo'r ko'nglin tindurding,
Hamma qilgon ishingga hayron ekan, Bekturboy.* [4,108].

Zavqiyning bu she'ri dong'i chiqqan firibgar Bektur – Viktor Axmatovga bag'ishlangan bo'lib, u Komenskiylar savdo kontorasining ish boshqaruvchisi bo'lgan. Shoir antroponimni sof o'zbekcha nom bilan atagan.

-xon – bu indikator, odatda, qizlar ismini anglatadi. Ba'zi hududlarda, masalan, Farg'ona vodiysida erkak ismiga ham birikadi va erkalash yoki hurmat ma'nosini ifodalaydi. [7,231]. Olimning fikrlari isbotini Zavqiy ijodida ham uchratish mumkin: *Jalolxon, Qorixon, Nazirxon, Azimxon;*

*Chinni bilan choy sotur Jalolxon,
Singon ani zarfi qush tuyakka* [4,102].

-qul – xizmatchi, g'ulom; itoatgo'y. Bu so'z ismlarning bosh va oxirgi qismiga an'anaga ko'ra qo'shiladi va asosan, Allohnning bandasi, quli, mo'min, musulmon ma'nolarida keladi. [8,586] Zavqiy ijod qilgan onomastik maydonda esa *Nabiquli* antroponimining nominatsiyasi payg'ambarning sodiq xizmatkori ma'nosidagi apellyativdan yuzaga chiqqan.

*Sinmaydi demang Nabiqulini,
Foynakni urushturur sarakka* [9,117].

-xo'ja – bu so'z qo'shimcha nasl-nasabni anglatib, hurmat sememasini tashkil etadi. Zavqiyning o'ziga xos hajviyalarida esa bu antroponimik aniqlagich onomastik maydonda kinoya, kesatiq ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan: *Shodmonxo'ja, Fozilxo'ja, Dovudxo'ja, Ahmadxo'ja;*

*Shodmonxo'ja bachchag'ar xotinboz,
Joiz solib otsa zambarakkha* [9,118].

-bach(ch)a – tojikchada bola ma'nosini anglatuvchi bacha so'ziga bir ch harfi orttirilib o'zbek tiliga o'zlashgan ushbu vosita xushro'y, kelishgan ma'nolarini ham ifodalaydi. Zavqiyning hajviy she'rlarida bu indikatorli ismlarni aksincha ma'no maydonida uchratish mumkin: *Ma'dalibachcha, Ortuqbacha, Hojibachcha, Qoribacha, Farzinbacha;*

*Qoribacha sinchalakka o'xshar,
Farzinbacha misli voyvoyakka* [9,120].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Zavqiy antroponimik birliklardan rang-barang va mohirona foydalangan. Uning nominator sifatidagi mahorati, ayniqsa, hajviyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Zavqiy asarlaridagi antroponimlarni leksik-semantik jihatdan yondashilib ikkiga ajratish mumkin:

- 1) genetik jihatdan asosan arab, qisman fors-tojik tiliga oid antroponimlar;
- 2) faqat hajviy she'rlarda qo'llangan sof o'zbekcha antroponimlar.

Shoir she'rlaridagi antroponimlarning aksariyat qismi arabiq qatlama ga mavjudligi davrning ijtimoiy va adabiy muhiti bilan izohlansa, hajviy she'rlarga dadil olib kirilgan o'zbekcha ismlar tilning boyishiga va saqlanib qolishiga bevosita xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. (Hojiyev A. Explanatory dictionary of linguistic terms.)
2. Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorlilaridagi antroponilarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent:2000. (Husanov N. Lexical-semantic and stylistic features of anthropones in Uzbek literary monuments of the 15th century.)
3. Abdurazzoqov Y. Zavqiy haqida xotiralar. Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. – Toshkent: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. (Abdurazzokov Y. Memories about Zavki. Zavki. Poems, research articles, memoirs.)
4. Zavqiy. Ajab Zamona. – Toshkent: Sharq, 2003. (Zavki. Amazing era.)
5. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumi. – Toshkent: O'zRFA qo'lyozmalar instituti tahriri nashriyot bo'limi, 1998.(Kayyumov P. Tazkirai Qayyumi.)
6. Razzoqov H. Zavqiy. – Toshkent. 1955.
7. Begmatov. E. A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshket: Fan, 2013.(Begmatov. E. A. Anthroponymics of the Uzbek language.)
8. Begmatov. E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. 2-nashr. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007.(Begmatov.E.A. The meaning of Uzbek names.)
9. Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. – Toshkent: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.(Zavki. Poems, research articles, memoirs.)